

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**ASHIRBOYEV AXRORJON TIRKASH O‘G‘LI**

**ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA SURISHTIRUV  
VA DASTLABKI TERGOVNI TO‘XTATISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Ashirboyev Axrorjon Tirkash o‘g‘li**

Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni  
to‘xtatishni takomillashtirish.....3

**Аширбоев Ахроржон Тиркаш угли**

Совершенствование приостановления дознания  
и предварительного следствия в досудебном производстве.....21

**Ashirboev Akhrorjon Tirkash ogli**

Improving the suspension of inquiry and preliminary  
investigation in pre-trial proceedings.....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**ASHIRBOYEV AXRORJON TIRKASH O‘G‘LI**

**ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA SURISHTIRUV  
VA DASTLABKI TERGOVNI TO‘XTATISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/Yu552 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://akadmvd.uz>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Radjabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xamidov Baxtiyorjon Xamidovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-aprel kuni soat 11:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1541-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 1-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 1-apreldagi 7-raqamli reestr bayonnomasi).



**A.S. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh.A. Kulmatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda 2023-yilda sodir etilgan jinoyatlar soni 550 milliondan oshib, o'tgan o'n yil davomida 14 foizga ko'paydi<sup>1</sup>. Shu bilan birga, ushbu jinoyatlarning fosh etilish ko'rsatkichlari pasayishi natijasida tergovning to'xtatilishi 18 foizdan 30 foizgacha, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qidiruv e'lon qilish holatlari esa, 24 foizdan 36 foizgacha ortdi<sup>2</sup>. Globallashuv sharoiti, shuningdek transchegaraviy hamda axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlar soni tobora ko'payib borayotganligi tufayli protsess ishtirokchilarining tergovga kelishini ta'minlash, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning aybini fosh etish va tergovdan yashiringan ayblanuvchilarni qidirishda qator muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bois, ishni sudga qadar yuritish bosqichida tergovni to'xtatish bilan bog'liq protsessual faoliyatni yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Jahonda ishni sudga qadar yuritish bosqichida surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish, to'xtatilgan ishlar yuzasidan jinoyatlarni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh etish maqsadida o'tkaziladigan protsessual harakatlar natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash bilan bog'liq qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, huquqni qo'llash amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish asoslarini tasniflash, uzoq vaqt davomida ish yurituvchi to'xtatib turilgan, murakkab va ochilmay qolgan jinoyat ishlari doirasida o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov hamda protsessual harakatlar va tezkor-qidiruv tadbirlarini to'g'ri belgilash, qidiruv e'lon qilinishini ko'payishiga sabab bo'layotgan omillarni o'rganish, to'xtatilgan ish bo'yicha davom ettirilishi mumkin bo'lgan tergov harakatlari doirasini belgilash, ayblanuvchilarni ushlab, majburiy keltirish, qidirish hamda ularni ekstraditsiya qilish va qo'llanilgan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi bilan bog'liq davlat xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, to'xtatilgan ishlar yuzasidan tergovchining boshqa sohaviy xizmatlar, jamoatchilik va davlat organlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash kabi muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda jinoyat-protsessual munosabatlarda inson huquqlarini himoya qilish tizimini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, ishni sudga qadar yuritishda shaxs huquq va erkinliklari himoyasining kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar olib borilmoqda. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni fosh etish faoliyatini takomillashtirish, sodir etilgan har bir jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini hamda shaxs, jamiyat va davlatga yetkazilgan zarar to'liq qoplanishini ta'minlash asosiy vazifaga aylanmoqda. Shu sababli, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va tergovdan yashiringan ayblanuvchilarni qidirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni ta'minlash hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiyalashtirish, surishtiruv hamda dastlabki tergov organlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish orqali to'xtatilgan jinoyat ishlari yuzasidan tezkor-qidiruv va protsessual harakatlarni sifatli o'tkazish, jinoyatlarni tez va to'la ochish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratga aylanmoqda.

---

<sup>1</sup> The mission of the National Center for Victims of Crime // Elektron manba: <https://victimsofcrime.org> (murojaat vaqti: 10.11.2024).

<sup>2</sup> Wanted persons // Elektron manba: <https://www.interpol.int/notice/search/wanted> (murojaat vaqti: 10.11.2024).

O‘zbekiston Respublikasining “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni (2017), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023), “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2017), “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020), “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022) Farmonlari, “Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022) qarori va boshqa qonun hujjatlarining ijrosini ta’minlashga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan G‘.A. Abdumajidov, I.R. Astanov, X.X. Botirov, Sh.F. Fayziyev, S.N. Gordeyev, B.B. Hidoyatov, Z.F. Inog‘omjonova, D.E. Karimova, Sh.A. Kulmatov, A.A. Matchanov, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, F.Z. Nasriddinov, B.A. Rajabov, M.A. Rajabova, M.X. Rustambayev, B.N. Rashidov, T.R. Saitbayev, G.Z. To‘laganova, A.A. Xamdamov va boshqalarning ilmiy ishlarida, chop etilgan darslik hamda boshqa o‘quv adabiyotlarida ishni sudga qadar yuritish bosqichida surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish bilan bog‘liq ayrim masalalar tadqiq etilgan.

Xususan, X.X. Botirov dastlabki tergovni to‘xtatish tushunchasi, asoslari va shartlarini, S.N. Gordeyev va A.A. Matchanovlar to‘xtatilgan jinoyat ishi doirasida qidiruv e‘lon qilishning tashkiliy va huquqiy asoslarini, I.R. Astanov ayblanuvchi og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda unga nisbatan ekspertiza tayinlash, F.Z. Nasriddinov ayblanuvchi aniqlanmagan hollarda jinoyat ishini to‘xtatishga taalluqli ayrim muammolarni o‘rganganlar.

Xorijiy mamlakatlarda L.Sh. Ambass (Fransiya), James N. Gilbert, Michael D. Liman (AQSh), Han, Min Kyung (Janubiy Koreya), Samuel Koroni, Petr Mikhok (Slovakiya)lar tomonidan tergovni to‘xtatishning samaradorligini oshirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

MDHga a‘zo davlatlarda tergovni to‘xtatishning jinoyat-protsessual huquqiy jihatlarini V.M. Bikov, V.E. Gushev, K.B. Kalinovskiy, X.J. Kenjayev, M.E. Klyukova, S.M. Kurginyan, A.I. Navikov, A.M. Popov, L.M. Repkin, V.V. Ryabchikov, K.A. Sergeev, A.S. Shaginyan, K.D. Shatilo, V.V. Shimanovskiylar tadqiq etgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Hozirga qadar jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish asoslarini tasniflash, fosh etilmagan jinoyatlar hamda e'lon qilingan qidiruvlar bo'yicha tergov organlarining faoliyatini to'g'ri tashkil etish, to'xtatilgan jinoyat ishi bo'yicha davom ettirilishi mumkin bo'lgan tergov harakatlarini belgilash hamda jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan holatlarda ayblanuvchi va uning himoyachisiga xabar berish bilan bog'liq umumnazariy hamda amaliy tusdagi masalalar yuzasidan kompleks tadqiqotlar olib borilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi (17-bandi) doirasida amalga oshirilgan (2022-2024).

**Tadqiqotning maqsadi** ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish institutini takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish bilan bog'liq tushunchalar tahlilini amalga oshirish;

surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish institutining rivojlanish tarixini tasniflash va tavsiflash;

surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishning mazmuni va huquqiy tartibga solinganlik holatini tadqiq etish;

ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishning asoslarini tahlil qilish;

ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishning protsessual tartibi hamda shartlarini o'rganish;

surishtiruvchi, tergovchining surishtiruv va dastlabki tergov to'xtatilgandan keyingi harakatlarining tahlilini amalga oshirish;

ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda sud-tergov amaliyotining surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish bilan bog'liq ijobiy xususiyatlarini o'rganish hamda ularni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishga taalluqli qonunchiligimizdagi bo'shliqlarni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish bilan bog'liq jinoyat-protsessual munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy izlanishni amalga oshirishda bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, shuningdek sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishi materiallari hamda sud ajrimlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jinoyat sodir etgandan keyin, biroq hukm chiqarilguniga qadar ruhiy holati buzilganligi aniqlangan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanganda jinoyat ishini yuritish ruhiy holat buzilgan paytdan boshlab, sog'aygunga qadar to'xtatilishi lozimligi asoslantirilgan;

immunitet huquqiga ega bo'lgan shaxsni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish maqsadida tegishli vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan so'rov (taqdimnoma)lar kiritish va ularning natijalarini olish uchun uzoq vaqt talab etilayotganligini inobatga olib, jinoyat-protsessual qonunda jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatishning yangi asosini kiritish zarurati asoslantirilgan;

jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish to'g'risida qaror chiqarilayotganida unda olib qo'yilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanayotgan joyi belgilanishi, ushbu obyektlar, maxsus saqlashga topshirilishi lozim bo'lmasa, to'xtatilgan jinoyat ishi tugatilguniga qadar surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilgan joyda saqlanishi va ish boshqa tergov organiga topshirilayotgan vaqtda ish bilan birga topshirilishi lozimligi asoslantirilgan;

tibbiy muassasaga joylashtirilgan ayblanuvchiga nisbatan statsionar sud ekspertizasini o'tkazish va uning xulosasini olish uchun ko'p muddat talab etilishini inobatga olib, jinoyat-protsessual qonunda jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatishning yangi asosini kiritish zarurati asoslantirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish”, “ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lumligi”, “ayblanuvchining yashiringanligi”, “sirdan ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish” tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi;

huquqni qo'llash amaliyotida jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatishda tergov organlari xodimlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi;

surishtiruvchi, tergovchi jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish va qayta tiklash to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda ayblanuvchi hamda uning himoyachisini xabardor qilishi va ularga jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaror ustidan shikoyat qilish huquqi mavjudligi tushuntirilishi lozimligi asoslantirildi;

qidiruv e'lon qilingan paytda, surishtiruvchi, tergovchi tomonidan alohida bayonnoma tuzilib, unda ayblanuvchini ushlab, majburiy keltirish va qidirish uchun qilingan barcha xarajatlar ayblanuvchidan majburiy tartibda undirilishi va davlat hisobiga o'tkazilishi to'g'risida himoyachi, ayblanuvchining yaqin qarindoshlari va u bilan yaqin aloqada bo'lgan boshqa shaxslarga batafsil tushuntirib borishi lozimligi asoslantirildi;

“O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ularni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribalar, sotsiologik (anketa so'rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar

aprobatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Dissertatsiyada 412 nafar tergov, 25 nafar prokuratura va advokatura hamda 65 nafar ilmiy-pedagog xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov tahlillari, shuningdek 533 ta jinoyat ishi va 51 ta sud ajrimlari o'rganilib, natijalar umumlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek "Jinoyat-protsessual huquqi", "Tergov faoliyati" hamda "Kriminalistik taktika va metodika" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda namoyon bo'ladi. Tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishni huquqiy tartibga solish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular natijasida shakllantirilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda JPK) hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish tartibini belgilovchi normalarini takomillashtirishga bag'ishlangan loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jinoyat sodir etgandan keyin, biroq hukm chiqarilganga qadar ruhiy holati buzilganligi aniqlangan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanganda jinoyat ishini yuritish ruhiy holat buzilgan paytdan boshlab, sog'aygunga qadar to'xtatilishi lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining jinoyat ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 9-son qarorining 7-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 24-apreldagi 03-23-302-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash masalasi hal qilinayotgan ishlarda ishni yuritishga mas'ul bo'lgan shaxslarning ish yurituvini to'xtatish bilan bog'liq harakatlarini tartibga solishga hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishiga xizmat qilgan;

immunitet huquqiga ega bo'lgan shaxsni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish maqsadida tegishli vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan so'rov (taqdimnoma)lar kiritish va ularning natijalarini olish uchun uzoq vaqt talab etilayotganligi inobatga olinib, jinoyat-protsessual qonunda jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatishning yangi asosini kiritilishiga doir takliflardan yangi tahrirda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi loyihasining

411-moddasini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 24-dekabrda 27/2-359-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi daxlsizlik huquqidan mahrum qilish maqsadida ayblanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan rozilik berish haqida so‘rov yuborilgan ishlar bo‘yicha jinoyat ishini tergov qilishni to‘xtatish orqali surishtiruv va dastlabki tergov muddatlarini samarasiz sarflanishining oldi olinishiga xizmat qilgan;

jinoyat ishini tergov qilishni to‘xtatish to‘g‘risida qaror chiqarilayotganida unda olib qo‘yilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanayotgan joyi belgilanishi, ushbu obyektlar, maxsus saqlashga topshirilishi lozim bo‘lmasa, to‘xtatilgan jinoyat ishi tugatilguniga qadar surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilgan joyda saqlanishi va ish boshqa tergov organiga topshirilayotgan vaqtda ish bilan birga topshirilishi lozimligiga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasining 2021-yil 29-avgustdagi “Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 60-QQ-son qarorining 56-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 30-maydagi 30/18-778-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi tergov to‘xtatilgan ishlar doirasida ish bo‘yicha olib qo‘yilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalar qay yo‘sinda saqlanishi bilan bog‘liq tartibni belgilab berishga va bu boradagi huquqiy bo‘shliqlarning to‘ldirilishiga xizmat qilgan;

tibbiy muassasaga joylashtirilgan ayblanuvchiga nisbatan statsionar sud ekspertizasini o‘tkazish va uning xulosasini olish uchun ko‘p muddat talab etilishini inobatga olib, jinoyat-protsessual qonunda jinoyat ishini tergov qilishni to‘xtatishning yangi asosini kiritishga doir taklif va tavsiyalardan yangi tahrirda ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi loyihasining 411-moddasini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 24-dekabrda 27/2-359-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi jinoyat ishda ayblanuvchi sifatida jalb etilgan shaxslar sud ekspertizalarini o‘tkazish uchun tibbiy muassasada statsionar ko‘rikda bo‘lgan vaqtda jinoyat ishini tergov qilishni to‘xtatish orqali surishtiruv va dastlabki tergov muddatlarini asossiz sarflanishining oldi olinishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan, milliy nashrlarda 6 ta, xalqaro jurnallarda 1 ta, ilmiy anjumanlarda 6 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 154 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishning nazariy-huquqiy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda tadqiqot mavzusiga aloqador tushunchalar tahlili, ularning ahamiyati, surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishga oid jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining rivojlanish tarixi hamda bugungi kundagi holati, ushbu jarayonni takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy zarurati tahlil qilingan. Olimlarning tadqiqot mavzusiga oid bahsli fikr-mulohazalariga tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "*Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish tushunchasi va ahamiyati*" deb nomlanib, unda amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida "surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish" tushunchasiga ta'rif berilmaganligi, shuningdek ushbu tushuncha qonunchilikda o'n ikki marotaba "dastlabki tergovni to'xtatish", ikki marotaba "surishtiruvni to'xtatish", uch marotaba "jinoyat ishini ko'rishni to'xtatish" hamda ikki marotaba "ish yuritishni to'xtatish" jumalari qo'llanilganligi natijasida ilmiy-doktorinal sharhlarda ham mutaxassislar tomonidan mazkur jumlagi nisbatan turli-tuman talqinlar keltirilgan. Qolaversa, o'tkazilgan so'rovlardan ma'lum bo'ldiki, huquqni qo'llash amaliyotida ham "surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish" jumlasini har xil ma'noda tushunilib, turli xil shakllarda qo'llanilishiga sabab bo'layotganligini muammo sifatida keltirib o'tilgan.

Tadqiqotchi mazkur masalaga yechim sifatida "dastlabki tergovni to'xtatish"ni amaldagi JPKning 320<sup>3</sup>-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda "jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish" jumlasiga o'zgartirishni maqsadga muvofiq deb hisoblab, ushbu tushunchaga nisbatan o'zining mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan.

Shuningdek, tadqiqotda ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish borasidagi jinoyat-protsessual huquq nazariyasidagi mavjud qarashlar, ushbu institutning qo'llanilish zarurati, uning huquqni qo'llash amaliyotidagi ahamiyati hamda jinoyat ishining yurituvini asossiz to'xtatilishining qator salbiy oqibatlarini yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishning retrospektiv tahlili*” deb nomlanib, unda tadqiqotchi tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish hamda qayta tiklash bilan bog‘liq amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining shakllanish va rivojlanish tarixi shartli ravishda quyidagi olti bosqichga ajratilgan:

*birinchi bosqich* – qadimgi davrlardan eramizning VII–VIII asrlariga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, ushbu davrda jinoyat bo‘yicha ish yuritish odat huquqi hamda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” asosida tartibga solingan hamda bu davrda ish yurituvini to‘xtatish bilan bog‘liq qoidalar mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning ilk ko‘rinishlari shakllana boshlagan;

*ikkinchi bosqich* – islom dinining kirib kelishidan boshlab chor Rossiyasi bosqiniga qadar (VIII asrdan XIX asrning oxiri) bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, jinoyat va jazo masalalari islom dini aqidalariga asoslangan shariat qoidalari hamda qisman odat huquqi asosida tartibga solingan. Mazkur davrda sodir etilgan jinoyatning og‘irlik darajasidan qat’iy nazar surishtiruv ishlari aybdor shaxs topilguniga qadar davom ettirilgan;

*uchinchi bosqich* – Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri (1864-1917-yillar) hisoblanib, jinoyat va jazo masalalari shariat qoidalari bilan birga chor Rossiyasining qonunchiligi asosida tartibga solingan. Ushbu davr o‘lkamizda 1864-yilgi “Jinoyat sudlov ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom qoidalarining joriy qilinishi bilan ahamiyatli hisoblanib, unda shaxslarni qidirib topish zarur bo‘lgan hamda ayblanuvchining ruhiy holati buzilgan hollarda ish yurituvini to‘xtatishni nazarda tutuvchi qoidalar aks etgan;

*to‘rtinchi bosqich* – sobiq Ittifoq tuzumi davri (1917 – 1991-yillar)ni o‘z ichiga olib, jinoyat va jazo masalalari O‘zbekiston SSRning 1922, 1923, 1926, 1929 va 1959-yillardagi Jinoyat-protsessual kodekslari normalari bilan tartibga solingan. 1922-yildagi kodeksda tergovni to‘xtatish bilan bog‘liq alohida bob ajratilmagan bo‘lsa-da, biroq ayblanuvchining jinoyat sodir etilganidan so‘ng ruhiy holati buzilganligi aniqlangan taqdirda shaxs tuzalib ketgunga qadar tergov to‘xtatilishi belgilangan. 1959-yildagi kodeksda esa dastlabki tergovni to‘xtatish asoslari alohida norma sifatida ajratilib, ushbu asoslarga ayblanuvchining yashash manzili, jinoyatni kim sodir etganligi aniqlanmaganligi hamda ayblanuvchining kasal bo‘lib qolganligi holatlari kiritilgan;

*beshinchi bosqich* – O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan (1991-yil) 2017-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olib, ushbu davrda jinoyat-protsessual qonunchilik institutlarni takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilib, JPKda dastlabki tergovni to‘xtatish va qayta tiklash bilan bog‘liq qoidalar alohida bobda (45-bob) jamlangan;

*oltinchi bosqich* – 2017-yildan hozirgacha bo‘lgan davr. Ushbu davr surishtiruv institutining joriy etilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mazkur bosqich surishtiruvni to‘xtatishni nazarda tutuvchi qoidalar JPKga alohida norma sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Jinoyat ishini tergov qilishni to‘xtatish amaliyoti**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotchi tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish asoslarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq amaliy

muammolar, shuningdek surishtiruvchi va tergovchining to'xtatilgan jinoyat ishi doirasida amalga oshirayotgan protsessual harakatlari bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Jinoyat ishini tergov qilishni to'xtatish asoslari”* deb nomlanib, mazkur paragrafda surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish asoslarining qo'llanilish amaliyoti tahlil qilingan hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimi bilan bog'liq fikrlar ilgari surilgan. Xususan, muallif amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoyat ishi yurituvchi to'xtatilmaganidan oldin boshlangan tergov harakatlarini, jinoyat ishi to'xtatilmaganidan keyin davom ettirilishi mumkin yoki mumkin emasligi bilan bog'liq aniq tartib nazarda tutilmaganligini tanqidiy tahlil qilgan.

Bu borada, I.R. Astanov, N.S. Salayev, V.V. Doroshkov kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ayrim xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini inobatga olgan holda qonundagi mazkur kollizion holatlarni bartaraf etish maqsadida JPKning 370-moddasining ikkinchi qismini *“Dastlabki tergov to'xtatilmaganidan keyin va u qayta tiklangunga qadar tergov harakatlari o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi, bunda surishtiruv va dastlabki tergov to'xtatilgunga qadar tayinlangan ekspertiza, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, taftish tergov harakatlarini o'tkazish davom ettirilishi mumkin”* deb ifodalashni taklif etgan.

Huquqni qo'llash amaliyoti tahliliga ko'ra, tergov organlari faoliyatida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yurituvini boshlashda, jinoyat ishi bo'yicha qanday qaror qabul qilish bo'yicha aniq tasavvur shakllanmagan. Bu esa, ayrim holatlarda shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashda tergov organlari tomonidan jinoyat ishini tugatish holatlari ham kuzatilgan. Sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun dissertant tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlanganda jinoyat ishini yuritish shaxsning ruhiy holati buzilgan paytdan boshlab, sog'aygunga qadar to'xtatilishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot ishida dissertant JPKda *ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lumligi”* tushunchasiga ta'rif berilmaganligi hamda Jinoyat kodeksining 64-moddasiga muvofiq to'xtatilgan jinoyat ishlari bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlari har xil hisoblanishini inobatga olib, mazkur tushunchaning mazmunini to'liq yoritib berish maqsadida uni ma'naviy jihatdan ikkiga, ya'ni *“ayblanuvchi o'ziga bog'liq bo'lmagan ayrim sabablarga ko'ra surishtiruv va dastlabki tergovga kela olmaganligi”* hamda *“ayblanuvchi surishtiruv va dastlabki tergovdan yashiringanligi”* deb ajratish lozimligini asoslab bergan.

Shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotida gumon qilinuvchilarni sirdan ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida qaror chiqarish holatlari kuzatilayotgan bo'lsa-da, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda mazkur tartibning nazarda tutilmaganligi dissertant tomonidan huquqiy bo'shliq sifatida e'tirof etilib, mazkur kamchilikni bartaraf etish bo'yicha tadqiqot ishida asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertant jinoyat ishini tergov qilishni asossiz to'xtatilishi bilan bog'liq holatlarga barham berish maqsadida, qidiruv e'lon qilinayotgan har bir shaxsning yashash xonadonida tintuv o'tkazish, shuningdek yaqin qarindoshlari, qo'ni-qo'shnilari, tanishlari va mahalla faollarini uning qayerdaligini aniqlash uchun so'roq qilish lozimligi hamda mazkur tergov harakatlarini amalga oshirishda aynan nimalarga e'tibor qaratish zarurligi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Ushbu bobning "*Tergov organlarining surishtiruv va dastlabki tergov to'xtatilgandan keyingi harakatlari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafi surishtiruvchi va tergovchi tomonidan jinoyat ish yurituvini to'xtatilishiga sabab bo'lgan omillarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda ularning ijrosi yuzasidan tergovga qadar tekshiruv organlari va boshqa idoralar bilan hamkorlik masalalariga bag'ishlangan.

Jumladan, tadqiqotchi tergov organlari tomonidan surishtiruv va dastlabki tergov to'xtatilgan jinoyat ishlari bo'yicha harakatlar rejasi barcha holatlarda ham tuzilmasligini kamchilik sifatida e'tirof etib, to'xtatilgan har bir jinoyat ishi yuzasidan harakatlar rejasini tuzish va ish holatidan kelib chiqqan holda doimiy ravishda unga o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan yangilab borish zarurligi bo'yicha o'zining tavsiyalarini bergan.

Shuningdek, tergov organlarining faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida, JPKning 364-moddasi birinchi qismi 1 va 2-bandlari bilan ish yurituvini to'xtatilgan jinoyat ishlari bo'yicha har chorakda kamida bir marotaba ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlariga ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxslarni aniqlash, yashirinib yurgan ayblanuvchilarni qidirib topish borasida yozma topshiriqlar berilishi hamda ularning shaxsiga oid ma'lumotlarni IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazidan tekshirilishi lozimligi asoslantirilgan.

Tergovchi o'z ish yurituvidagi jinoyat ishi doirasida barcha tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirilganidan keyin ham samarali natijalarga erishmagan holatlarda, mazkur ish bo'yicha ko'p yillik amaliy tajribaga ega bo'lgan, yuqori malakali tergovchilar bilan maslahatlashib borish amaliyotini yo'lga qo'yish lozimligi taklif etilgan. Mazkur taklif dissertant tomonidan amaliyot xodimlari bilan o'tkazilgan intervyular hamda o'rganilgan jinoyat ishlari misolida asoslantirilgan.

Shuningdek, uzoq vaqt davomida ish yurituvini to'xtatib turilgan, murakkab va ochilmay qolgan jinoyat ishlarini ko'p yillik amaliy tajribaga ega xodimlar hamda IIV Akademiyasi ixtisoslik kafedralarining tajribali professor-o'qituvchilaridan iborat maxsus maslahat guruhlarini tuzgan holda o'rganib chiqish hamda ish doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni belgilab olinishi tartibini yo'lga qo'yish zarurligi amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlariga asoslangan holda taklif etilgan.

Dissertatsiyaning "**Surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishni takomillashtirish istiqbollari**" nomli uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatishning protsessual tartibi va shartlari, shuningdek mazkur institutni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishga doir xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili”* deb nomlangan bo‘lib, unda dissertant tergovni to‘xtatish borasida qator xorijiy mamlakatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilgan.

Tadqiqotda jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish asoslari hamda shartlarining tahlili mavjud huquq oilalari tasnifi asosida amalga oshirilib, ularning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlanib, mazkur institutni takomillashtirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar asosida, “jinoyat ishi bo‘yicha xorijiy davlatlar hududida tergov harakatlarini o‘tkazish zarurati vujudga kelgan va buning uchun ko‘p vaqt talab etiladigan holatlarda” asosi amaldagi qonunchilikda alohida belgilanmagan bo‘lsa-da, huquqni qo‘llash amaliyotida huquqiy asossiz yoki JPKning 364-moddasining bandini belgilamagan holda jinoyat ishini to‘xtatish holatlarining keng tarqalganligi dissertant tomonidan qonun talablarining qo‘pol buzilishi sifatida baholangan. Mazkur omil inobatga olinib, tadqiqot ishida AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Isroil va boshqa rivojlangan davlatlarning qonunchiligini o‘rgangan holda dissertant tergov hamda boshqa protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to‘g‘risida so‘rov yuborilgandan so‘ng uning natijalari olinganiga qadar jinoyat ishi yurituvini to‘xtatilishi mumkinligini jinoyat-protsessual qonunchilikda mustaqil asos sifatida belgilash lozimligini asoslab bergan.

O‘tkazilgan so‘rov natijalari, xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi hamda o‘rganilgan jinoyat ishlarining tahliliga ko‘ra, immunitet huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasi hal etilguniga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ida ish yurituvini to‘xtatishni nazarda tutuvchi asoslarning milliy qonunchilikda mavjud emasligi, tergov organlarining mazkur vaziyatda surishtiruv yoki dastlabki tergovni ish holatiga to‘g‘ri kelmaydigan asoslar bilan to‘xtatish bo‘yicha qaror chiqarishga majbur bo‘lishlariga zamin yaratmoqda. Bu esa, o‘z navbatida jinoyat-protsessual munosabatlarda qonuniylik prinsipining qo‘pol ravishda buzilishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotchi ushbu muammolarga yechim sifatida JPK 364-moddasining birinchi qismini *“jinoyat sodir etgan shaxsni yoki ayblanuvchini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan rozilik berish haqida so‘rov yuborilganda”* mazmundagi matn bilan to‘ldirish lozimligini taklif etgan.

Uchinchi bobning *“Ishni sudga qadar yuritishda surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishning asoslari hamda protsessual tartibini takomillashtirish”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida mazkur institutni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan asosiy taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Jumladan, nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyoda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi samarali kurashish maqsadida karantin tadbirlari joriy qilinganligi va mazkur holatda tergov hamda protsessual harakatlarni amalga oshirish hamda jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning bevosita ishtirokini ta‘minlash imkoni bo‘lmaganligi sababli yurituvdagi jinoyat ishlarini to‘xtatish

zarurati yuzaga kelgan. Biroq, amaldagi qonunchilikda aynan mazkur holat yuzasidan jinoyat ishini to'xtatish asosi nazarda tutilmaganligi sababli, huquqni qo'llash amaliyotida protsessual muddatlarga rioya etilmaslik bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelgan. Aynan mazkur omillarni inobatga olib, tadqiqotchi karantin yoki favqulodda holat joriy etilganda jinoyat ishi yurituvini to'xtatish mumkinligini nazarda tutuvchi yangi asosni jinoyat-protsessual qonunchiligida aks ettirish zaruratini asoslab bergan.

